

2026-yil 8-may

Xotira va qadrlash — avlodlarni bog'lovchi muqaddas rishta



9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJda korxonada xodimlari hamda mehnat faxriylari ishtirokida “Uch avlod uchrashuvi” va “Inson qadri ulug’, xotira muqaddas” shiori ostida ma’rifat soatlari tashkil etildi.



Tadbir davomida faxriylar o'zlarining boy hayotiy tajribalari, mehnat faoliyati va Vatanga sadoqat haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashib, yosh avlodga ibrat bo'ladigan muhim saboqlarni ulashdilar. Samimiy ruhda o'tgan uchrashuv avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlash, keksa avlodga hurmat-ehtirom ko'rsatish hamda xotira va qadrlash qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qildi.





“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xotira-va-qadrlash-avlodlarni-bog-lovchi-muqaddas-rihta>